

KARYERA MARKAZI XODIMLARINING LAVOZIM VAZIFALARI

1. Karyera markazi bo'lim boshlig'i:

Markaz faoliyatiga bevosita rahbarlik qiladi, o'z vakolatlari doirasida o'ziga bevosita bo'ysunuvchi xodimlar ishini tashkillashtiradi, boshqaradi va muvofiqlashtiradi;

Markazning yillik ish rejasini tuzadi, tasdiqqa kiritadi va ularning ijrosi bajarilishini ta'minlaydi;

Bitiruvchilarning bandligi bo'yicha monitoring olib boorish va tegishli hisobotlarni tayyorlash;

Ish beruvchilar bilan doimiy aloqa o'rnatib, bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'playdi va talabalarga yetkazadi;

Talabalar uchun karyera rivojlantirish bo'yicha treninglar, seminar va uchrashuvlar tashkil etadi;

Karyera markazi faoliyatiga oid hujjatlar va hisobotlarni belgilangan tartibda yuritadi;

Bitiruvchilarni ishga joylashtirish bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritadi va yangilab boradi;

Vakolati doirasida murojaatlarni ko'rib chiqadi;

Bo'ysunuvdagi xodimlarga sohaga oid tushuntirish ishlarini olib boradi hamda ularni mehnat va texnika xavfsizligi qoidalari bo'yicha o'qitishni tashkil qiladi;

O'z vakolatlari doirasida sohaga oid buyruq va farmoyishlar loyihasini tayyorlaydi;

O'z bo'ysunuvidagi xodimlar uchun zarur bo'lgan materiallarga buyurtmalar beradi va taqsimlaydi;

Xizmat vazifasini bajarish vaqtida hududda aniqlangan favqulotda vaziyatlar, yong'inlar yoki boshqa noqonuniy xatti-harakatlar haqida rahbariyatni o'z vaqtida xabardor qiladi hamda ushbu holatlarni bartaraf etish choralarini ko'radi;

Tabiiy va ekologik vaziyatlar, avariylar va talofatlarga tayyor turadi;

Kamchiliklar aniqlanib, yuzaga kelgan muammolar haqida Rahbariyatni o'z vaqtida xabardor qiladi;

Xizmat vazifalarini bajarish vaqtida spirtli ichimliklar yoki boshqa kuchli ta'sir qiluvchi vositalarni iste'mol qilmaslik majburiyatini oladi;

Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etmaydi, ichki tartib hamda odob-ahloq qoidalariga qat'iy rioya qiladi va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaydi;

Xizmat vazifalarini halol va vijdonan bajaradi, mehnat va ijro intizomiga rioya qiladi.